

TALABALAR UCHUN TASVIRIY SAN'AT TARIXINI O'RGANISHNING AHAMIYATI

To'liyeva Ruxsora Yo'ldoshboy qizi

Urganch davlat pedagogika instituti

Tasviriy san'at va muhandislik
grafikasi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada tasviriy san'atning rivojlanishi, uni o'rganish talabalar uchun muhim ahamiyat kasb etishi tahlil qilinadi. San'at tarixi nafaqat estetik dunyoqarashni shakllantirish, balki madaniy merosni anglash, tarixiy tafakkurni chuqurlashtirishda muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: san'at tarixi, dunyoqarash, janrlar, talabalar, emotsional, did, insoniyat, estetik tarbiya.

ВАЖНОСТЬ ИЗУЧЕНИЯ ИСТОРИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА ДЛЯ СТУДЕНТОВ

Толиева Рухсора Йулдошбой кизи

Урганч государственный педагогический институт

Направление изобразительного искусства и инженерной графики,
студентка 3 курса,

Аннотация: В статье анализируется развитие изобразительного искусства и значение его изучения для учащихся. История искусств играет важную роль не только в формировании эстетического мировоззрения, но и в постижении культурного наследия и углублении исторического мышления.

Ключевые слова: история искусств, мировоззрение, жанры, учащиеся, эмоциональность, вкус, гуманизм, эстетическое воспитание.

THE IMPORTANCE OF STUDYING THE HISTORY OF FINE ARTS FOR STUDENTS

Tuliyeva Rukhsora Yuldoshboy qizi

Urganch State Pedagogical Institute

Annotation: this article analyzes the development of fine arts, the importance of studying them for students. Art history plays an important role not only in the formation of an aesthetic worldview, but also in understanding cultural heritage and deepening historical thinking.

Keywords: art history, worldview, genres, students, emotional, taste, humanity, aesthetic education.

Kirish: San'at tarixi deganda odamlar tomonidan estetik, aloqa, fikr, hissiyot yoki dunyoqarash bildirish maqsadida qilingan har qanday faoliyat yoki mahsulot tarixi tushuniladi. ¹San'at bir qancha turlarga bo'linadi. Tasviriy san'at insoniyat tafakkuri, madaniyati va estetik qarashlarining yuksak ifodasi hisoblanadi. hozirgi paytgacha san'at jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib kelgan va u orqali xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar va orzu-umidlari aks ettirilgan.

Tasviriy san'at talabalarda ma'naviy madaniyatning ajralmas qismlaridan biri hisoblangan badiiy madaniyatni uyg'un rivojlantirish, talabalarni milliy merosimiz va umuminsoniy qadriyatlar bilan oshno qilish, ijodkorlikka keng yo'l ochib berishdan iboratdir. Uning vazifalariga esa o'quvchilarda badiiy ijodiy qobiliyat, kuzatuvchanlik, tashabbuskorlik, mustaqillik, badiiy va estetik didni, ko'z xotirasini, chamalash qobiliyatini, tasviriy malakalarni, rang sezishni hamda fazoviy obrazli tafakkurni rivojlantirish, borliq va san'at asarlaridagi go'zalliklarni ko'ra bilish, san'at asarlarini o'qiy olishga o'rgatish ham kiradi.²

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalaridagi tasviriy san'at yo'nalishida tahsil oladigan talabalar tasviriy san'at turlari, janrlari va tarixi haqida ko'p ma'lumotga ega bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, har qanday sohani amaliy

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/San%CA%BCat_tarixi

²O.N.Shomurodov "Tasviriy san'at tarixi" o'quv qo'llanmasi. Buxoro-2021

o'rganish va nazariyasi bilan yaxshi tanish bo'lish soha mutaxasisi bo'lishda katta ahamiyatga ega.

Tasviriy san'at insoniyat tafakkurining qadimiy ifodasi bo'lib, u orqali turli xalqlarning madaniyati, dunyoqarashi va tarixiy voqealari aks etgan. Qadimgi ibtidoiy davrlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, qoyatoshlar yoki yog'och bo'laklariga chizib ketilgan tasvirlar o'sha davridayoq tasviriy ifoda shakllanganidan dalolat beradi. Bu chizgilardagi ifodalar bora-bora shakllangan va bu odamlarning fikrlashi o'sib borganligini ko'rsatadi. Hozirgi paytgacha bu mashg'ulot to'xtab qolmagan, aksincha, rivojlanib kelgan. Turli davrlarda turlicha san'at asarlari yaratilgan, o'z davriga xos chizish uslublari paydo bo'lgan. Har bir san'at asari darajasiga yetgan rasmlar muzeylarda saqlanmoqda va uning milliy madaniy meros sifatida o'rganilishi davom etib kelmoqda. Talabalar san'at tarixini o'rganish orqali o'z milliy madaniyatini chuqurroq anglaydi va boshqa xalqlarning san'atiga hurmat bilan qarashni o'rganadi.

Adabiyot tahlili: zamonaviy ta'lim metodikasida tasviriy san'at tarixining ahamiyati ko'proq kognitiv, emotsional va madaniy rivojlanish bilan bog'liq tarzda o'rganilmoqda. Yoshlarni ma'naviy yetuk, barkamol qilib tarbiyalashda tasviriy san'at, xususan san'at tarixi fani alohida ahamiyat kasb etadi. bu Oliy o'quv yurtlarida o'qiyotgan maxsus fanlarning chuqur va asosli bo'lishini taqozo etadi. Xususan, pedagog olim va zassomlar zimmasiga mas'uliyat yuklaydi.³

Tasviriy san'at yo'nalishidagi talabalarga "Tasviriy san'at tarixi" fani o'qitiladi. Bu fanning asosiy maqsadi talabalarni maktablarda "tasviriy san'at" darsligini o'qitishga tayyorlash, tabiatdagi hamda san'at asarlardagi go'zallikni ko'ra bilish va tafakkur etish, badiiy-estetik did, fazoviy tasavvur, kuzatuvchanlik va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishdan iboratdir. ⁴ Tasviriy san'at tarixini chuqur o'rganish har bir talabaga kichik suratlardan tortib san'at asarlarigacha o'zgacha yondashuv tuyg'usini beradi. Bunda rasmning o'ziga xos uslubi, texnikasi, qaysi davrga xos uslubda ekanligini anglashga yordam beradi. Nazariy jihatdan

³ Bobonazarov Sh.U, Sa'diyev S.T. Tasviriy san'atdan boshlang'ich tavsiyalar. 2014

⁴ Yuldasheva N.I, Xolmatova F.M. Oliy ta'lim tizimida san'at tarixi fanini o'qitishning nazariy asoslari. 2022

o'rganish talabalarda buyuk rassomlar ijodi bilan yaqindan tanishishga va ularning asarlari haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishiga hissa qo'shadi. San'at tarixini o'rganish – bu faqat yodlash emas, balki tafakkur qilish, tahlil qilish, baholash va ijodiy izlanishga kirishishdir. Talabalar san'at asarlarini o'rganar ekanlar, muallifning niyatini tushunishga harakat qiladilar, san'at asarini o'z fikri bilan baholaydilar. Bu esa tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Xulosa:tasviriy san'at tarixini o'rganish talabalar uchun nafaqat san'atga oid bilimlarni egallash, balki ular orqali tarix, madaniyat, estetik tarbiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. San'at asarlarini chuqur anglash orqali yoshlar o'z milliy qadriyatlarini tan oladi,hurmat va qiziqish uyg'onadi. Shu boisdan ham ta'lim tizimida tasviriy san'at tarixiga alohida e'tibor qaratish, uni interaktiv va zamonaviy yondashuvlar asosida o'qitish, talabalarni muzey va ko'rgazmalarga jalb etish orqali bu yo'nalishning ahamiyatini yanada oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/San%CA%BCat_tarixi
- 2.O.N.Shomurodov “Tasviriy san'at tarixi” o'quv qo'llanmasi. Buxoro-2021
- 3.Bobonazarov Sh.U,Sa'diyev S.T. Tasviriy san'atdan boshlang'ich tavsiyalar. 2014
- 4.Yuldasheva N.I,Xolmatova F.M. Oliy ta'lim tizimida san'at tarixi fanini o'qitishning nazariy asoslari. 2022
5. Oripov B.N. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. Toshkent. 2016